

NUTQ MADANIYATI VA STILISTIKA

Lapasova Go`zal Unarboy qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti o`qituvchisi

Ibragimova Shahzoda Sherzod qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada nutq madaniyati va stilistikaning tilshunoslikdagi o`rni, ularning o`zaro bog`liqligi hamda zamonaviy kommunikatsiya jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Nutq madaniyatining me`yoriy, kommunikativ va axloqiy jihatlari tahlil qilinib, stilistikaning nutqni maqsadga muvofiq tashkil etishdagi vazifalari ochib beriladi. Shuningdek, adabiy til me`yorlari, funksional uslublar va nutqiy sifatlarning shakllanishida nutq madaniyatining roli asoslab beriladi. Maqolada nutq madaniyatini rivojlantirish shaxs madaniyatini yuksaltirishning muhim omili ekanligi ilmiy dalillar asosida ko`rsatib beriladi.*

Kalit so`zlar: *Nutq madaniyati, stilistika, uslub, til madaniyati, kommunikatsiya, estetik nutq, ilmiy uslub, badiiy uslub, publitsistik uslub, rasmiy uslub.*

O`zbek tilshunosligida uzoq yillar mobaynida stilistika «Hozirgi o`zbek adabiy tili» fanining so`nggi bo`limi sifatida, asosan, nutq uslublarini tekshiruvchi sohasi hisoblanib kelindi. Funksional uslublarni o`rganish, tilning stilistik vositalarini belgilash bo`yicha ayrim tadqiqotlar olib borildi. Nutq uslublarining, jumladan, ilmiy uslubning leksik-frazeologik va morfologik xususiyatlari yuzasidan M. Mukarramovning «Hozirgi o`zbek adabiy tilining ilmiy stili» qo`llanmasi, taniqli olimlar A. Shoimqulov, L. Rasulov, R. Qo`ng`urov, N. Raxmonovlar tomonidan «O`zbek tili stilistikasi» darsligi nashr etildi. Publitsistik uslubning leksik-frazeologik xususiyatlari va rasmiy nutq uslubi bo`yicha bir qancha nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Shular asosida o`zbek tili stilistikasi mustaqil fan sifatida shakllana boshlandi. Yuqorida aytib o`tilgan darslik va qo`llanmalarda tilning funksional aspekti, nutq uslublarining lingvistik tomonlari va ularning o`zaro munosabati, leksik, morfologik va sintaktik stilistika masalalari yoritilgan. Morfologik stilistika doirasida aniq va turg`un uslubiy shakllar berildi. Shu bilan birga bu masalalar nutq madaniyati muammolari bilan bog`lab o`rganildi. Nutq uslublarining ba`zi bir leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari izohlandi.

Nutq madaniyati, nutq odobi — 1) og`zaki va yozma adabiy til me`yorlari (talaffuz, urg`u, qo`llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqalaralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati; 2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me`yorlashtirish (tartibga solish) muammo larini o`rganuvchi bo`limi. G`arb tilshunosligida umumiy ma`noda "til madaniyati" termini ham qo`llanadi. 1-ma`nodagi "Nutq madaniyati" tushunchasi adabiy tilni o`zlashtirishdagi ikki bos-qichni qamrab oladi: a) nutqning to`g`riligi va boshqa nutqiy mahorat. Nutqning to`g`riligi muayyan tilda so`zlovchilar va yozuvchilar tomonidan "ideal" yoki umum

tomonidan qabul qilingan va an'anaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy me'yorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy me'yorlarga amal qilish, balki o'zaro mavjud bo'lgan variantlardan mazmunan eng to'g'ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng makbuli va ifodalisini tanlab olish mahoratidir (Mas., aka — oka — ako; kelyapti — kevotti — kelopti variantlaridan bi-rining adabiy me'yor sifatida tanlanishi). Yuksak Nutq madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madaniyatini, tilga nisbatan ongli mehr-muhabbatini namoyon qiladi.

Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz. Buning uchun talaffuzda, so'z shakllaridan foydalanishda, jummalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak.

Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Ushbu fanning mustaqil bo'limi sifatida, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar ta'siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qildi". Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'lik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyati deb nomlanadigan narsani o'z ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir. XV asrdayoq o'zbek adabiy tilining Nutq madaniyati va uning o'ziga xos me'yorlari bo'lgan. Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo'shgan bo'lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr tili va nutq madaniyati ma'lum darajada aks etgan. "Yaxshi so'z — jon ozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli so'zlarning paydo bo'lishi ham o'zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e'tibor kuchli bo'lganidan darak beradi.

O'tgan asrning 20-yillaridan so'ng o'zbek tilining Nutq madaniyati xalq tiliga yaqinlashtirilgan milliy adabiy til me'yorlariga asoslanadi. Bu me'yorlarni shakllantirish ishiga olimlar (Otajon Hoshim, T. N. Qoriniyoziy, S. Ibrohimov, Olim Usmon va boshqalar), adib-u shoirlar (Qodiriy, Cho'lpon, Avloniy, Fitrat, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va boshqalar) munosib hissa qo'shdilar

Stilistika bu (yun. *stylos* – yozuv, xat tayoqchasi) degan ma’noni bildiradi, uslubshunoslik uslubiya – tilshunoslikning til uslublarini tadqiq etuvchi, tilning leksik-frazeologik, fonetik, morfologik, soʻz yasalihi va sintaktik sathlarda sinxroniya va diaxroniya nuqtayi nazaridan funksional qatlamlanishining mohiyati va oʻziga xosliklarini oʻrganuvchi, adabiy tilni turli lisoniy vaziyatlarda, yozma adabiyotning xilma-xil tur va janrlarida, ijtimoiy hayotning turli sohalarida qoʻllash meʼyorlari va usullarini tavsiflovchi tarmogʻi. Stilistikada parallel sinonimik til ifodalaridagi maʼnoviy va ekspressiv nozikliklar, lisoniy birliklarning oʻzaro munosabatdosh variantlari oʻrganiladi. Bunday variantlarda ular orasidan muayyan nutqiy vaziyat uchun zarur boʻlganini tanlab olish imkoniyati mavjud boʻladi.

Zamonaviy stilistika turli lingvistik yoʻnalishlar va maktablarda turlicha tushunilgan, shu bilan birga har bir nuqtai nazar, stilistikaning asosiy oʻrganish mavzui boʻlmish uslubning serqirraligi sababli, oʻz obyektiv asosiga ega boʻlgan. Stilistika til meʼyor (norma)lari bilan uzviy bogʻliqdir. Stilistika oʻz navbatida funksional stilistika, lisoniy birliklar stilistikasi, matn stilistikasi, badiiy adabiyot (badiiy nutq) Stilistikasi, amaliy stilistika, qiyosiy stilistika, tarixiy Stilistika kabi turlarga boʻlingan edi.

Adabiy tilning quyidagi vazifaviy uslublari mavjud: 1) soʻzlashuv uslubi; 2) rasmiy uslub; 3) ilmiy uslub; 4) publitsistik uslub; 5) badiiy uslub. Vazifaviy uslubni nomlash va atash ham ularning qanday aloqa doirasida ishlatilganligiga qarab belgilanadi.

Soʻzlashuv uslubi — kishilarning kundalik norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining oʻziga xos amal qilishidir. Vazifaviy uslubning bu turi oʻziga xos ish koʻrsatish sharoiti, yaʼni fikr olishuvning bevositaligi, til vositalarini saylab ishlatilmasligi bilan, shuningdek, ohang vositalari, mimika, imo-ishora kabilardan keng foydalanish, oddiy leksik va frazeologik birliklarning, ekspressivemotsional vositalarning keng ishlatilishi bilan ajralib turadi. Masalan, farzand — jujuq, dunyodan oʻtmoq — jon bermoq, imtihondan oʻta olmaslik — imtihondan yiqilmoq kabi juftliklarning ikkinchisi asosan soʻzlashuv uslubiga xos. Soʻzlashuv uslubi fonetik, leksik, morfologik va sintaktik oʻziga xosliklarga ega.

Rasmiy uslub (rasmiy ish qogʻozlari uslubi) — hozirgi oʻzbek adabiy tilining rasmiy yozishmalar va yuridik ishlarda amal qiladigan bir koʻrinishidir. Qonunlar matnlari, farmonlar, buyruq va koʻrsatmalar, shartnomalar, har xil rasmiy hujjatlar, tashkilotlar oʻrtasidagi yozishmalar rasmiy uslubda yoziladi. Bu uslub boshqa uslubdan lugaviy va grammatik xususiyatlari jihatidan farqlanadi. Rasmiy uslubda soʻz va soʻz shakllarini qoʻllashda muayyan chegaralanishlar mavjud. Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish, erkalash qoʻshimchalarini olgan soʻzlar, koʻtarinki, tantanavor yoki shevaga oid soʻzlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan soʻzlar, oʻxshatish, mubolagʻa kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi shakllar ishlatilmaydi. Rasmiy ish qogʻozlari matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, mazmuniy toʻliqlikdan iborat zaruriy sifatlari undagi oʻziga xos soʻz qoʻllash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali taʼmin etiladi. Masalan, buyruqda "... soʻm maosh bilan... lavozimiga tayinlansin", yoki xizmat yozishmalarida

"Sizga...ni ma'lum qilamiz". "...ga korxona kafolat beradi" kabi qoliqlashgan tuzilmalar qo'llanishi mumkin.

Ilmiy uslub — fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan vazifaviy uslubdir. Bu uslubda tabiat va ijtimoiy hayotdagi hodisalar aniq ta'riflanadi, tushuntiriladi. Vazifaviy uslubning bu turi terminologik va mavhum leksikaning, murakkab sintaktik tuzilmalarning qo'llanishi, so'zlarning asosan aniq, to'g'ri ma'noda ishlatilishi, maxsus iboralarga egaligi va shu kabilar bilan ajralib turadi. Ilmiy uslubda yana fanning turli sohalariga oid ramz (simvol) va belgilar, raqamlar ham ishlatiladi. Ilmiy uslub o'z ichida quyidagi mayda uslublarga bo'linadi: ilmiy ish uslubi, ilmiy-texnik uslub, ilmiy-ommabop uslub, ilmiy-publitsistik uslub. Fanning u yoki bu sohasiga tegishli tushunchalarni ifodalovchi atamalarga boyligi ilmiy uslubning eng asosiy xususiyatlaridan biridir.

Publitsistik uslub vazifaviy uslubning bir turi bo'lib, u ijtimoiy, siyosiy so'z va iboralarning qo'llanishi, janrlarning xilma-xilligi va buning natijasida til vositalaridan uslubiy foydalanishning rang-barangligi va shu kabilar belgilar bilan xarakterlanadi. Publitsistik uslub ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda, vaqtli matbuotda, siyosiy chiqishlarda, majlislardagi nutqlar va shu kabilarda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy-siyosiy bilimlarni targ'ib qiluvchi va keng xalq ommasiga yetkazuvchi vosita sifatida bu uslub tilining rang-barangligi bilan kishilar ongiga ko'proq ta'sir etadi. Publitsistik uslubning yana bir xususiyati shundaki, unda qisqalik asosiy o'rinni egallaydi, ya'ni qisqa, lo'nda, tushunarli, yorqin, ixcham tilda yozish asosiy talablardan hisoblanadi. Publitsistik uslubda til vositalaridan foydalanishda muallifning individual uslubi deyarli ajralib yoki sezilib turadi. Ayniqsa, bu holat ocherk, felyeton, badiiy publitsistik makrlarda tez ko'zga tashlanadi. Badiiy uslubda ham bu holat mavjud; rasmiy uslubda esa bunday xususiyat yo'q. Publitsistik uslub ba'zi qo'llanma va ilmiy adabiyotlarda "ommabop uslub", "matbuot uslubi" kabi atamalar bilan ham nomlanadi.

Badiiy uslub — tilning kommunikativ va estetik vazifalari birligi bilan boshqa uslubga xos unsurlardan keng foydalanishi, ekspressiv va tasviriy vositalarning ko'p ishlatilishi, so'zlarning obrazli, ko'chmametaforik qo'llanishi va shu kabi belgilari bilan ajralib turadi. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lug'aviy birliklarning ishtirok etaverishi va ularning muhim bir vazifaga — estetik vazifani bajarishga xizmat qilishini badiiy nutq uslubining o'ziga xos xususiyati deb qarash kerak bo'ladi, chunki ana shunday imkoniyat boshqa vazifaviy uslubda chegaralangandir. Adabiy tilda dialektizmlar, jargonlar, varvarizmlardan, dag'al so'zlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmagani holda ularni badiiy uslubda o'rni bilan qo'llash mumkin.

Stilistikaning fan sifatida shakllanishi, rivojlanishi va o'rganilishi G'arbda antik davrlarga, Sharqda esa o'rta asrlarga to'g'ri kelgan. Stilistika Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda, garchi hozirgiday aloqida soha sifatida bo'lmasa ham, lekin tilshunoslik (grammatika, lug'at), adabiyotshunoslik (ilmiy bade', istiora, tafsir), shuningdek, ilmi insho, voizlik, notiqlik san'ati kabi fanlar tarkibida o'rgatib kelingan. O'tgan asrda O'zbekistonda stilistika ayniqsa umumiyfunktional stilistika va badiiy adabiyot stilistikasi mustaqil fan tarmog'i sifatida shakllana va rivojlana boshlagan.

Bunda Fitrat, Cho'lpon, Oybek, P. Qodirov kabi yozuvchilarning, M. Qo'shjonov, Q. Samadov, I. Qo'chqortoyev, A. Shomaqsudov singari olimlarning hissalari katta bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hakimov, S. (2019). Nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiya. Toshkent: Akadernashr.
2. Jumaniyozov, A. (2020). Stilistika va nutq uslublari. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
3. Karimov, O. (2021). O'zbek tili va nutq madaniyati: dolzarb masalalar.
4. Madvaliyev, A. (2006). Nutq madaniyati asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
5. Mahmudov, N. (2012). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan.